

DARIY TILI GAZETA MATNLARIDA SIYOSIY EVFEMIZMLARNING  
FUNKSIONAL ASPEKTI XUSUSIDA

Begmatova Diloromxon A'zamxon qizi

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 2-kurs magistranti*

*Ilmiy rahbar: Alimova Xolida Zikrillayevna*

*Filologiya fanlari doktori(DSc), professor*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Eron-afg'on filologiyasi kafedrası*

**Annotatsiya:** *Bugungi globallasuv sharoitida siyosiy mavzulardagi keskin yoki haqoratli tuyuladigan so'zlarni nisbatan yumshoqroq so'zlar bilan almashtirishga ehtiyoj ortmoqda. Bunday yondashuv, avvalo, OAVda keng miqyosda qo'llaniladi: muhim siyosiy, ijtimoiy voqealar va ma'lumotlar neytral va "g'uloflangan" tarzda yoritiladi. Qolaversa, har qanday jamiyatda fuqarolar yangiliklardan xabardor bo'lish istagida eng ko'p OAVga murojaat qiladi. Maqolada dariy tili gazeta matnlarida siyosiy evfemizmlar, politkorrekt so'zlardan foydalanish zarurati va mavzu guruhları tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *evfemizatsiya, siyosiy evfemizm, siyosiy kommunikatsiya tili*

Ma'lumki, siyosiy nutqda evfemizmlarni qo'llash bir necha omillar bilan izohlanadi: 1) madaniyatlararo muloqot, davlatlar o'rtasida do'stlik aloqalarini saqlash, o'zaro tinchlik va ishonchni o'rnatish; 2) nomaqbul faktlar va hodisalarni yashirish orqali fuqarolarni manipulyatsiya qilish; 3) muloqot vaqtida kelib chiqishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarning oldini olish.

Hozirgi kunda dariy tilida siyosiy evfemizmlar muhim ahamiyatga ega, zero siyosiy kommunikatsiya tili har bir tilning eng dinamik jabhalaridan hisoblanadi. G.A. Zavarzinaning ko'rsatishicha, hozirgi rus tilida siyosiy evfemizmlarni yaratishdan maqsad siyosiy va etik sabablarga ko'ra noqulay so'zlarni neytralizatsiyasi uchun ishlatiladi, biroq til egalari tomonidan mazkur tushunchalar bir xil ma'noda anglashiladi. G.A. Zavarzina siyosiy evfemizmlarning quyidagi qo'llanilish sohalarini ko'rsatadi:

1. Hokimiyat organlari va ularning faoliyati: *управляемая демократия* - *boshqariluvchi demokratiya*;

2. Harbiy harakatlar va ularning istirokchilari: *зачистка территории в значении физическое уничтожение* - *jismonan yo'q qilish ma'nosida hududni tozalash*;

3. Iqtisodiy usullar va ularning oqibatları: *либерализация цен* - *narx liberalizatsiyasi, свободные цены* в значении *рост цен* - *narx ko'tarilish ma'nosida erkin narx*;

4. Turli milliy va ijtimoiy guruhlar va ularning o'zaro munosabati: *гастролеры из кавказского региона* в значении *группы с Кавказа* - *avkaz jinoiy guruhları ma'nosida Kavkaz mintaqasidan gastrolerlar*;

5. Tashqi siyosiy xarakterdagi hodisalar: *однополярный мир вместо диктата США - AQSh zo 'ravonligi o'rniga bir qutbli dunyo*.<sup>22</sup>

Dariy tilidagi "Anis" gazetasining 2023-yil sonlaridagi ijtimoiy-siyosiy matnlar tahlili asosida siyosiy evfemistik birliklarning quyidagi mavzu guruhlarini ajratildi:

1. Hokimiyat organlari va ularning faoliyati: *دولت در اجرای وعده های کوتاه کرده است* "davlat o'z va'dalarini bajarishda qo'li kaltalik qilmoqda" gapida davlat o'z va'dalarini bajarmayapti deyilmasdan, balki *کوتاهی* "qisqalik" so'zidan foydalanib vaziyatni yumshatishga harakat qilingan.

2. Harbiy harakatlar va ularning istirokchilari: Siyosiy matnlarda evfemizatsiya hodisasi keng kuzatiladi. Misol uchun harbiy sohaning asosiy institutlaridan biri hosoblangan *"Mudofaa vazirligi"* "وزارت دفاع" nomi evfemizmgga asoslangan. Aslida bu tashkilot mudofaa bilan bir qatorda hujum masalalari bilan shug'ullangani bois *"Harbiy vazirlik"* "وزارت نظامی" deb nomlanishi maqsadga muvofiq edi. Biroq ko'pgina davlatlar tomonidan uning faqat ijobiy bo'yoqqa xos ma'nosi - mudofaa, himoya so'zlari saqlangan (hujum, urush kabi negativ ma'nolari tushirib qoldirilgan).

Evfemizatsiya hodisasi turli harbiy operatsiyalar va munosabatlar masalalarini qamrab oladi. Bunda xalqaro maydondagi yoki jahon miqyosidagi siyosiy obraz haqida gap ketganda, garchand subyektiv qarashga asoslangan bo'lsada, kasb etgan ayrim siyosiy arboblarning maqomi boshqa atamalar bilan ko'rsatiladi.

*"عملیات"* "operatsiya" misolida harbiy harakatlarni tavsiflovchi aniqlovchilar tushurib qoldirilgan. Bu kabi elipsislar siyosiy matnlarda ko'p uchraydi.

*"عملیات شهادت طلبانه"* "shahodattalabona operatsiya" misolida evfemizatsiya qisman kanotatsiya xarakteriga ega. Zero *"shahodattalabona operatsiya"* iborasi ostida "urush" nazarda tutilmoqda. Bundan tashqari bu iboraning zamirida *"خودکشی"* ya'ni o'zini o'ldirish orqali boshqalarning joniga suiqasd qilish ma'nosi yotadi. Bunday yondashuv muallifning (mazkur o'rinda davlat siyosatining) vaziyatga munosabati bilan bevosita ifodalanadi.

Siyosiy sohada evfemizatsiyaning muhim mavzularidan biri o'lim, qotillik, urushda halok bo'lish, begunoh qurbonlar bilan ham bog'liq: *"از بین بردن"* "o'rtadan olib tashlamoq", *"به دنیای باقی"* "boqiy dunyoga jo'natmoq". Nazarimizda bu evfemizmlar disfemiya bilan yondosh. Zero unda qotillik tushunchasi mavjud.

*"شهادت"* "shahidlar", *"قربانیان"* "qurbonlar", *"شربت شهادت نوشیدن"* "shahodat sharbatini totimoq", *"به دنیای باقی رخت کردن"* "boqiy dunyoga rixlat qilmoq", *"جان باختن"* "jon bermoq" mazkur misollarda matbuotning urushda begunoh qurbon bo'lgan fuqarolarga munosabati aks etadi. Bu tipdagi maqolalarda, ayniqsa halokat aybdorlari emas, aynan qurbonlar haqida gap ketganda, evfemizmlar ko'p uchraydi. O'lim mavzusi bo'yicha evfemizatsiyaning asosiy vositasi metofra hisoblanadi<sup>23</sup>.

Bizningcha evfemik vositalarni tanlashning asosiy omili matn muallifning vaziyatga munosabati bilan bog'liq. Aksariyat hollarda muallifning yondashuvi davlat va xalq qo'llab quvvatlagan pozitsiyaga mos keladi.

<sup>22</sup> Заварзина Г.А., "Эвфемизмы как проявление "политической корректности"", *Русская речь*, 2006, 2, С. 54 – 57.

<sup>23</sup> Саня Сич-Загоршак. О политических эвфемизмах в современном русском языке // *Сroat. Slav. Iadert.* – 2009. – С. 235-249.

3. Iqtisodiy usullar va ularning oqibatlarini: “sarmoya kiritish” misolini evfemizm sifatida qabul qildik, chunki ushbu soʻz foyda olish maqsadida qarz berish maʼnosida ishlatiladi.

4. Turli milliy va ijtimoiy guruhlar va ularning oʻzaro munosabati: baʼzan misollarda evfemiya qoʻllanilishiga oʻrin boʻlmaydi. Materiallar tahlili shuni koʻrsatadiki, ISHID va Al-Qoida kabi yirik terroristik tashkilotlarning faoliyati yoki jazoga loyiq shaxslar xatti-harakatida oʻlim bilan bogʻliq birliklar evfemik vosita orqali ifodalanmaydi. Biroq baʼzida salbiy voqea tafsilotlarida ham publisistik nutqni bezash va bir tushunchaning qaytarigʻidan qochish maqsadida evfemizmlar qoʻllaniladi. Shu jumladan, milliy mintalitetga xos boʻlgan omillar ham evfemizmlarning qoʻllanilishini taqozo etadi: “*علماء و بزرگان قومی بامیان گفت امارت اسلامی افغانستان به هیچ کسی اجازه نمی دهد که میان افغانها نفاق افگنی کنند*” “*Bomiyon qavmi ulugʻlari aytdilarki, Afgʻoniston Islom Amirligi hech kimning afgʻonistonliklar oʻrtasida nizo keltirib chiqarishiga yoʻl qoʻymaydi*” gapida “*بیر مردان*” “*qariyalar*” soʻzi oʻrnida “*بزرگان*” “*yoshi ulugʻlar*” soʻzi evfemizm sifatida foydalanilmoqda.

Bundan tashqari, “*nogironlar*” oʻrniga “*معلولی*” “*imkoniyati cheklanganlar*”, “*کور*” “*koʻr*” soʻzi oʻrniga “*نايينا*” “*koʻzi ojiz*”, “*فقرا*” “*faqirlar*” oʻrniga “*اقتشار آسيب پذير*” “*aziyat chekkanlar*” kabi evfemizmlarni ham ushbu guruhga kiritishimiz mumkin.

5. Tashqi siyosiy xarakterdagi hodisalar: tashqi siyosatda soʻz amaldagi harakatdan kam rol oʻynamaydi, balki undan muhimroq ahamiyatga ega boʻladi. Chunki soʻz tinchlik va kelishuv yoki aksincha, janjal, dushmanlik va hatto, urush boshlashga asos boʻluvchi manbaga aylanishi mumkin. Shu sababli har bir soʻzni sinchkovlik bilan oʻylab ishlatish lozim. Yuqorida keltirilgan misollar, shu jumladan, ushbu guruhga mansub siyosiy evfemizmlar muallifning va davlatlarning vaziyatga yondashuvi bilan bogʻliqligini yana bir bor taʼkidlab oʻtish joiz. “*مقامهای دولت آمریکا تحریمهای اعمال شده علیه ایران را سخت ترین و فلجکننده ترین تحریمها در طول تاریخ تمدن انسان نامیده اند*” “*Amerika hukumati amaldorlari Eronga nisbatan joriy qilingan qilingan sanksiyalarni insoniyat sivilizatsiyasi tarixidagi eng qattiq va eng ogʻir sanksiyalar deb atadi*” gapida “*تحریم*” “*sanktsiya*” soʻzi “*مجازات*” “*jazo*” oʻrnida siyosiy evfemizm sifatida foydalanilgan. “*ادامه این وضعیت باعث میگردد تا جامعه بین المللی*” “*Bunday vaziyatning davom etishi xalqaro hamjamiyatni “Afgʻonistonga insonparvarlik yordamini qayta koʻrib chiqishga majbur qiladi” gapida “کمک های بشر دوستانه” “insonparlik yordamlari” siyosiy evfemizm hisoblanadi.*

G.A. Zavarzina<sup>24</sup> koʻrsatib oʻtgan siyosiy evfemizmlarning mavzu guruhlarini asosida dariy tilidagi “Anis” gazetasining joriy yilgi sonlaridagi ijtimoiy-siyosiy matnlardagi siyosiy evfemistik birliklarning tahlili sanab oʻtilgan mavzu guruhlarini orasidan harbiy sohaga va tashqi siyosatga oid boʻlgan siyosiy evfemizmlar koʻlami kengroq ekanini koʻrsatdi.

Bizningcha siyosiy kommunikatsiya jarayonida evfemizatsiya qoʻllanilishiga ehtiyojimiz baland, zero bu masalaning etik tomoni hisoblanadi. Albatta, bu oʻrinda evfemizmlarni haddan tashqari ortiq qoʻllash anglashilmovchilik va xato xulosalarga olib kelishini ham unutmaslik kerak.

<sup>24</sup> Заварзина Г.А., “Эвфемизмы как проявление “политической корректности””, *Русская речь*, 2006, 2; С. 54 –57.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Rabiyeva M.G'. Zamonaviy ingliz ommaviy axborot vositalarida evfemizmlarning funksional aspekti xususida // NamDU ilmiy axborotnomasi. – 2021. - № 5. – B. 383-387.
2. Заварзина Г.А. Эвфемизмы как проявление “политической корректности”. *Русская речь*, 2006, 2, С. 54 – 57.
3. Мадайени Авал Али., Сейед-Агаи Резаи Сейде Моханна Сейд Хасан. Основные функции эвфемистических единиц в русском и персидском языках // *Лингвистика и межкультурная коммуникация*. – 2017. - № 10(2). – С. 13-20.
4. Саня Сич-Загорщак. О политических эвфемизмах в современном русском языке // *Croat. Slav. Iadert*. – 2009. – С. 235-249.
5. روزنامه ملی انیس: <https://anisdaily.com/>